

Parijning “Sharl de Gol” aeroportidan uchib ketayotgan yo‘lovchilar diqqatiga

2023 30 Mart

31-martdan boshlab Uzbekistan Airways aviakompaniyasining Parij shahridan bajariladigan aviaqatnovlari “Sharl de Gol” aeroportining 2A terminali o‘rniga 2B terminali orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, Parijdan jo‘nab ketuvchilar 2B terminalida ro‘yxatdan o‘tadilar.

Yo‘lovchilar 2B terminaliga yetib olishlari uchun qo‘shimcha vaqt talab etilishini hisobga olgan holda aeroportga vaqtliroq yetib kelishlarini so‘raymiz.